

ARAB TILINING RIVOJLANISHI JARAYONI VA
TARIXIY TADRIJIGA BIR NAZAR

Abduraimova Shohista Bozor qizi

University of Busines and Science (Toshkent filali)

I kurs magistranti

shohistaabduraimova32@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz arab tilining shakllanishi va rivojlanishi tarixidagi muhim bosqichlarni ilmiy tarzda ilmiy-nazariy qarashlar va yondashuvlar orqali bu tilning yuzaga kelishi hamda taraqqiy etganligi, shuningdek, arab tilining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq ilmiy qarashlar haqidagi tarixiy-qiyosiy, tarixiy-xronologik tahlil uslublari orqali ushbu ilmiy masalaga aniqlik kiritib, ilmiy masalaning mazmuni va mohiyatini ochib berish jarayonida ko'rib o'tamiz...

Kalit so'zi: Arab tili tarixi. Arab tilning shakllanishi va rivojlanishi tarixi. Arab tilinig o'zga xos xususiyati. Arab mumtoz (klassik) tili va yozuvi.

A LOOK AT THE DEVELOPMENT PROCESS AND HISTORICAL
EVOLUTION OF THE ARABIC LANGUAGE

Abduraimova Shohista Bazar qizi

University of Business and Science (Tashkent Branch),

1st year master's student

shohistaabduraimova32@gmail.com

Abstract: In this article, we will examine the important stages in the history of the formation and development of the Arabic language scientifically, through scientific and theoretical views and approaches, as well as through historical-comparative, historical-chronological analysis methods regarding the emergence and development of this language, as well as scientific views on the specific features of the Arabic language, clarifying this scientific issue and revealing the content and essence of the scientific issue...

Key words: History of the Arabic language. History of the formation and development of the Arabic language. Distinctive features of the Arabic language. Classical Arabic language and script.

ВЗГЛЯД НА ПРОЦЕСС РАЗВИТИЯ И ИСТОРИЧЕСКУЮ
ЭВОЛЮЦИЮ АРАБСКОГО ЯЗЫКА

Абдураимова Шохиста Базар кызы

Университет бизнеса и науки (Ташкентский филиал),

магистратура 1-го курса

shohistaabduraimova32@gmail.com

Аннотация: В данной статье мы рассмотрим важные этапы в истории становления и развития арабского языка через научно-теоретические взгляды и подходы, а также научные взгляды на возникновение и развитие этого языка, а также специфические особенности арабского языка, через историко-сравнительный, историко-хронологический методы анализа, проясняя данный научный вопрос и раскрывая содержание и суть научного вопроса...

Ключевое слово: История арабского языка. История становления и развития арабского языка. Уникальная особенность арабского языка. Классический арабский язык и письменность.

KIRISH

Bilamizki, har bir xalqning o'z tili tarixi, uning (ya'ni o'sha tilning) shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari haqidagi ilmiy qarashlar hamda ilmiy mulohazalar mavjud bo'lib, bunda biz ilmiy mulohazamizni dunyo tillaridan eng qadimiyisi hamda eng taraqqiy etgani deya tariflanadigan til - Arab tilining rivojlanishi tarixi haqida bir-ikki shaxsiy ilmiy yondoshuvlarimizni bildirib o'tamiz hamda arab tilining uzoq davrlardan buyon shakllanishi va rivojlanishidagi muhim ilmiy ma'lumotlarni ko'rib o'tamiz. Arab tili dunyo madaniy merosining muhim qismi bo'lib, insoniyat tarixida alohida ahamiyat kasb etgan tillardan biridir. Qadim zamonlardan beri arab tili o'zining boy leksik va grammatik tizimi, keng qo'llanish doirasi bilan ajralib turgan. Ushbu til nafaqat Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika hududlarida, balki keng islom olamida ham aloqa va ilm-fan tili sifatida xizmat qilgan. Arab tili rivojlanishining turli bosqichlarini o'rganish, uning nafaqat diniy, balki madaniy va ilmiy taraqqiyotga qo'shgan hissasini aniqlashga imkon beradi. Arabiston yarim orolining qadimgi qabilalarida shakllangan ibtidoiy dialektlardan tortib, Qur'oni Karim orqali me'yoriylashtirilgan til shakliga qadar, arab tili uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tgan....

ASOSIY QISM

Arab tilining rivojlanishi tarixidagi ilk davrni biz jahon xalqlari sivilizatsiyasidagi eng qadimgi davr hisoblangan jahon xalqlari tillarining shakllanishi va rivojlanishi davridan boshlab (Miloddan avvalgi VIII-VII asrlardan hamda miloddan avvalgi VI-V asrlardan boshlab), to milodiy IV-V asrlargacha bo'lgan davrni olishimiz mumkin bo'ladi. Bunda qadimgi somiy xalqlaridan (semit xalqlari...) hisoblangan aramiylar, qadimgi bobilliklar, finikiylar, ossuriylar, qadimgi arab qabilalari orasida vujudga kelgan ilk so'zlashuv tili hidoblangan Aramiy tili (Oromiy tili va yozuvi) ushbu yuqorida keltirilgan davrimizda shakllangan va rivojlangan bo'lib, uzoq vaqt davomida mana shu qadimiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy, iqtisodiy-moddiy hayotida muhim tarixiy ahamiyat kasb etganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Milodiy IV-V asrlarga kelganda (ilk o'rta asrlarda) Arabiston yarim orolida, shuningdek, unga tutash bo'lgan hududlarida: Ikki daro oralig'ida (Hozirgi Iroq yerlarida), Hijozda,

Yamanda, Eron Sosoniylar yearigacha bo'lgan minatqalarda istiqomat qilgan qadimiy somiy xalqlaridan (semit xalqlaridan) arab ko'chmanchi chorvador qabilalari (badaviylar) ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-moddiy turmushida muhim ahamiyatga ega bo'lgan Aramiy (Oromiy tili) tili va yozuvi asosida asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, o'zlarining tili va yozuvig asos solgandilar...¹ [**Al-Ma'mari, A.A. Arab tili: Tarixi va rivojlanishiga kirish. Routledge, 2018. B.**] Bu tarixiy jarayon milodiy IV-VI asrlar oralig'ida yuz bergan bo'lib, bunda arab ko'chmanchi chorvador qabilalari ittifoqi asosida arab tilining shakllanishi va rivojlanishining dastlabki bosqichini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Bunda biz qadimiy Aramiy (Oromiy tili va yozuvi) tili va yozuvining eng muhim xususiyati hisoblangan yozuvning (xatning) o'ngdan chapga qarab yozilishi (Buning hozirgi kunimizda dunyo olimlari tomonidan asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, inson ko'z salomatligi uchun arab xatining va yozuvining muhim ahamiyatli jihati isbotlanganligidadir) jihatidan muhim ahamiyatiga egaligidadir... Shuningdek, arab tili va yozuvi dastaavval milodiy IV-V asrlarda Aramiy (Oromiy) tili va yozuvi asosida shakllanar ekan. Bunda dastlabki arab tilining shakllanishi va rivojlanishida 28 harf va 12 ta yordamchi harakat belgilari (ishoraviy belgilar) mavjudligi jihatdan ham ahamiyatli bo'lgan. Bundan tashqari, milodiy IV-V asrlardagi arab tili va yozuvining nomlanishi "**Kufiy xati**" va "**Kufiy yozuvi**" nomlari bilan atalgan bo'lib, bunda, avvallo, Ikki daro oralig'idagi (Hozirgi Iroq davlati yerlaridagi) joylashgan Kufa shahrida o'sha davrdagi olimlarning (arab olimlarining) yozma manbalarida va bitiklarida uchraganligi uchun ham ushbu nomlar bilan atalgan. Shuningdek, ba'zi sharqshunos olimlarining ilmiy mulohazalari va qarashlarida dastlabki arab tili va yozuvini (milodiy V-VII asrlar oralig'idagi vaqtlarda) "**hijoziy**" deb ham yurtishgan bo'lib, bunga asosiy sabab sifatida Arabiston yarim orolidagi qadimiy Hijoz shahri muhim ahamiyat kasb etganligi bilan ham alohida ajralib turadi. Bunda ham 28 ta harf va 12 ta harakat belgilaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Uchinchidan, arab tili va yozuvining shakllanishi va rivojlanishidagi 3 davr esa eng muhim bir davrlardan bo'lib, bunda Arabiston yarim orolidagi hamda unga tutash mintaqalarda muqaddas Islom dini va madaniyatining vujudga kelganligi bilan ham ahamiyatlidir (milodiy VII asrning birinchi yarmilarida). Aynan muqaddas Islom dini va madaniyati arab tili va yozuvining yanada taraqqiy etishiga sabab bo'lganligini dunyo xalqlari tarixida ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Milodiy VII asrning birinchi yarmilarida hamda o'rtalarida Arabiston yarim orolidagi ikki muqaddas shahar Makka va Madina shaharlari tarqoq arab qabilalarining birlashuviga hamda arab madaniyatining, tilining shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan edi. Shuningdek, Islom dinining muqaddas kitobi bo'lgan Qur'oni Karim mumtoz (klassik) arab tilining va yozuvining shakllanishi va rivojlanishi tarixida muhim ahamiyat kasb etgan edi. Muqaddas Qur'oni Karimning (Payg'ambarimiz sarvari koinot Muhammad

S.A.V hazratlariga Alloh taolo tominidan muqaddas vahiyalar orqali o'z rasuliga yuborgan muqaddas kalomi asosida bu muqaddas kitob yaratilgandi hamda ulug' sahobalar - sahobayi kirom hazrati Umar ibn Xattob davridan (634-644-yillarda) boshlanib, hazrati Usmon ibn Affon davrida (644-656-yillarda) yagona kitob holatida vujudga kelgan edi) yozma matnlari va nusxalari (xalifa Usmon Mus'hafi) mumtoz arab tili va yozuvining shakllanishi va rivojlanishi tarixida alohida va muhim ahamiyatga egadir.² [2. **2. Ibn Ashur, Muhammad. Ma'ani al-Qur'an. Tunis: Dar al-Sahab, 2002. B. 45-67.**] Shuningdek, Payg'ambarmiz sarvari koinot Muhammad S.A. V hazratlari hayoti va amoli haqidagi Risolat - Hadisi sharif ham (milodiy VIII asrning o'rtalari va IX asrlarda vujudga kela boshlagandi: muhaddislatdan **Imom Abu Dovud, Imom al-Muslim** hamda vatanimizdan yetishib chiqqan ulug' muhaddislar - hadisshunoslar: **Imom al-Buxoriy, Imom at-Temiziy, Imom al-Doramiy Samarqandiylar** ijodi va faoliyati orqali Hadisi sharifni vujudga keltirishida muhim rol o'ynagan edi) arab mumtoz (klassik) tili va yozuvining shakllanishi va rivojlanishi tarixida muhim ahamiyat kasb etganligiga alohida to'xtalib o'tmog'imiz join bo'ladi. Arab tili va yozuvining shakllanishi va rivojlanishi tarixidagi to'rtinchi bosqich esa bevosita muqaddas Islom dini va madaniyati ta'sirida milodiy VIII asrning birinchi yarimlaridan to milodiy IX asr boshlarigacha bo'lgan davrda nafaqat Arabiston yarim orolidagi minataqalarda, balki qo'shni hududlaridagi Shimoliy Afrika, Ispaniya, Yaqin Sharq, O'rta Sharq (Markaziy Osiyo hududlarida), Shimoliy Hindiston minataqalarda ham arab mumtoz (klassik) tili va yozuvining shakllanishi va rivojlanishi tarixi bosqichida eng ulkan bir davr bo'lganligini, shuningdek, arab mumtoz (klassik) tili va yozuvining ushbu hududlarida ham keng tarqalishiga zamin hozirlagan edi. Chunki bu davrlarida (milodiy VIII-X asrlardan boshlab) arab mumtoz (Klassik) tili va yozuvi Arab xalifaligi davrlarida (Ummaviylar 661-750-yillarda hamda Abbosiylar davrida 750-1258-yillarida) ushbu yirik saltanat qo'l ostidagi qaram o'lkalarda yoyilib borib, oxir-oqibatda esa eng muhim ilm-fan tili sifatida shakllanishiga hamda ushbu qaram hududlari aholisining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-moddiy, madaniy-ma'naviy hayotida, turmushida asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, shakllanib borib qaror topishiga sabab bo'lgan edi. [3. **Sibavayh. Al-Kitab. Tahrir: Hamid al-Din, 2009. B. 102-125.**] Bundan tashqari, Arab xalifaligi davrida (661-1258-yillarda) arab mumtoz (klassik) tili va yozuvining jahon tili, dunyo tili sifatida ahamiyati juda ham baland bo'lgan edi. Chunki Arab xalifaligi hamda unga qaram o'lkalarda ko'plab olim-u ulamolar, hakim-u hukomolar, faylasuf donishmandlar, fozil-u fuzalolar yetishib chiqqan bo'lib, ularning barchasi ilmiy ijod qilgan til ham mana shu mumtoz (klassik) arab tili va yozuvi hisoblanadi. Ushbu davrlarda qadimgi Yunon-Rim xalqlari madaniyatidagi ko'plab ilm-fanga doir yozma manbalarining arab mumtoz (klassik) adabiy tiliga tarjima qilinganligi orqali ham bu tilning yanada sayqal topishi hamda taraqqiy etishiga

judayam ulkan amaliy tarzda xizmat qilgan edi. Chunki yoqorida aytganimizdek, Arab xalifaligi tarkibidagi hamda qaramligidagi ko'plab xalqlar orasidan yetishib chiqqan olim-u mutafakkir zotlar ijod qilgan til bu o'sha vaqtlardagi jahon tili, dunyo tili sifatida shakllangan arab mumtoz (Klassik) tili va yozuvi hisoblangan edi. Arab tili va yozuvining shakllanishi va rivojlanishi tarixidagi beshinchi bosqichi davri esa uzoq bir davrni o'z ichiga olgan bo'lib, milodiy X-XI asrlardan to milodiy XVIII-XIX asrlargacha bo'lgan yirik davrlarni qamrab oladi. Chunki bu vaqtlarda Arab xalifaligi tarkibidagi ko'plab hududlarida to'liq ravishda arab tili va yozuvi dunyo tili, jahon ilm-fan tili sifatidagi nufuzi ta'min etilgan edi. Misol uchun, Movaraunnahr va Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-moddiy, madaniy-ma'naviy jabhalarda milodiy X-XI asrlardan to XIX asrning oxir va XX asrning birinchi yarimlarigacha bo'lgan davrda arab mumtoz (klassik) tili va yozuvidan ham adabiyoti sohasida, ham san'at sohasida, ham qisman ilm-fan sohasida qo'llanib kelinganligi haqidagi qimmatli ma'lumotni ketlib o'tsak foydadan holi bo'lmaydi, albatta. Bilamizki, Movaraunnahr va Turkistonda ushbu davrlarda uch til mavjud bo'lib, bular: arab tili, fors-tojik tili, turkiy til (eski o'zbek adabiy tili) hisoblangan. Shunda ham arab mumtoz (klassik) tili va yozuvi asosan ilm-fan sohasida obrazli tarzda ayradigan bo'lsak, mutloq hukmronlik maqomida edi. Misol uchun, o'zbek mumtoz adabiyoti vujudga kelgan milodiy XI asrdan to XX asrning birinchi yarimlarigacha bo'lgan ulkan davrda yaratilgan buyuk adabiy asarlar asosan arab mumtoz (klassik) yozuvida yartilgan bo'lib, XI-XII asrlarda badiiy ijod qilgan ulug' turkiy mutafakkirlardan Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ati at-turk" asari, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari, Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-Xaqoyiq" asari, Ahmad Yassaviy hazratlarining "Devoni Hikmat" asarlari asosan turkiy tilda bo'lsa ham, arab mumtoz (klassik) yozuvida yozilgandir. Bundan tashqari, o'rta asrlar sharq musulmon badiiy adabiyotida, ilm-fanida, madaniyatida, san'atida yaratilgan o'lmas durdonlar ham arab mumtoz (klassik) tili va yozuvi asosida yaratilgan bo'lib, shuningdek, o'rta asrlar sharq musulmon olamining buyuk mutafakkir donishmandlari hamda daho ijodkorlarining ijodiy faoliyatlarida biz ushbu tilning qanchalar muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Misol uchun, o'rta asrlar sharq musulmon ilm-fanining buyuk namoyondalari bo'lgan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Bakr ar-Roziy, Ahmad al-Marvaziy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr al-Farobiy, Mahmud az-Zamaxshariy, Abu Nasr al-Motrudiy, Burxoniddin al-Marg'unoniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon al-Beruniy kabi ulug' mutafakkirlarning ijodidagi "Kitob at-Tarix", "Kitob ahl as-Suna", "Majmuayi Buqrotiya", "Kitob at-tavhid", "Kitob al-mufassal", "Kitobi qonun ul- fit tib" ("Tib qonunlari"), "Fozil odamlar shahri", "Geodeziya", "Minrologiya", "Hindiston", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"³ [4. **Makdisi, George. Islom va G'arbda gumanizmning ko'tarilishi: G'oyalar tarqalish tajribasi. Edinburg:**

Edinburg Universiteti Nashri, 1990. B. 85-100.] kabi yuksak na'munalari sifatida sharq mumtoz musulmon tamaddunining o'lmas durdonlari sifatida arab mumtoz (klassik) tilining va yozuvining yanada rivojlanishiga va taraqqiy etishiga ulkan yozma manba sifatida xizmat qilgan edi desak aslo xato qilmagan bo'lamiz! Chunki o'sha vaqtlarda arab tili va yozuvi butun musulmon sharq olamida, dunyosida tan olingan ilm-fan tili, san'at tili, musulmon madaniyati tili, vaholanki, o'sha vaqtlarda jahon tili, dunyo tili sifatida tan olingan hamda qabul qilingan edi. Shuning uchun ham musulmon sharq dunyosidagi ko'plab buyuk mutafakkir va donishmand zotlarning ma'lum bir hudud yoki ma'lum bir xalqning farzandi bo'lishidan qat'iy nazar o'z ijodlarini, ilmiy yoki badiiy asarlarini arab tilida (mumtoz arab tili) yaratganligini hamda shu tilda faoliyat olib borganligining bevosita guvohi bo'lamiz. Shuningdek, milodiy IX-X asrlarda arab mumtoz adabiyoti va tilidan ta'sirlanish natijasida Xuroson-u Movaraunnahrda ham asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, musulmon sharq tasavvuf adabiyoti va she'riyati vujudga kelgan edi. Chunki arab tili (mumtoz arab tili) faqatgina ilm-fan sohasida emas, balki badiiy adabiyot sohasida, she'riyatda ham o'zining serqirraligi bilan ajralib turgan bo'lib, bunga sabab sifatida ikkita ilmiy fakti misol sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Birinchidan, musulmon sharq mumtoz adabiyotida (tasavvuf adabiyoti va she'riyatida ham) dastlabki badiiyat na'munalari ham arab tili (mumtoz arab tili) orqali yaratilganligi bunga birinchi ilmiy isboti bo'lsa, ikkinchidan esa arab tilda leksikasida (so'zligida) asosan sinonimlik (ma'nodoshlik xususiyati) xususiyatlarining boshqa dunyo tillariga qaraganda nihoyatda miqdorining ko'pligi bilan alohida ajralib turishligi esa ikkinchi ilmiy isbotidir. Shuning uchun ham arab mumtoz adabiyoti (tili ham) ta'srida milodiy IX-X asrlarda Xuroson-u Movaraunnahrda musulmon sharq mumtoz adabiyoti va she'riyati vujudga kelgan edi. O'rta asrlar musulmon sharq mumtoz adabiyotining ulug' mutafakkir va donushmand zotlaridan, namoyondalaridan Mavlono Rudakiy, Firdavsiy, Daqiqiy, Kaykavus ibn Shams ul-maoliy, Saolbiy, Shayx Sa'diy Sheroziy, Sulaymon Boqirg'oniy, Xofizi Sheroziy, Shayx Najmiddin Kubro, Shayx Pahlovon Mahmud, Mavlono Jaloliddin Rumiy, Shayx Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiy, Mavlono Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Mir Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk daho ijodkorlarning yaratgan yuksak badiiy asarlarning ko'pchiligi bevosita arab mumtoz (klassik) yozuvida yozilgan hamda yaratilgan bo'lib, masalan, "Shohnoma", "Qobusnoma", "Yatimat ut-dahr", "Al usul al-ashara", "Guliston", "Bo'ston", "Mufradot", "Masnaviy ma'naviy", "Devoni Kabir", "Mantiq ut-tayr", "Xamsa", "Lison ut-tayr", "Boburnoma" [Makdisi, George. **Islom va G'arbda gumanizmning ko'tarilishi: G'oyalar tarqalish tajribasi. Edinburg: Edinburg Universiteti Nashri, 1990. B. 85-100.]** kabi badiiyat na'munalari musulmon sharq mumtoz adabiyotidagi arab mumtoz (klassik) yozuvida (xatida) yaratilganligi bilan alohida ajralib turadi. Arab tili va yozuvining shakllanishi va rivojlanishi tarixidagi oltinchi

bosqichi esa XX asrning boshlaridan to bugungi XXI asr boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda bilamizki, butun dunyoda (Asosan G'arbda) fan-texnika inqilobi ro'y berib, ilm-fanning har bir sohalarida (Aniq fanlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar, filologiya fanlar, tabiiy fan kabi sohalarida) nihoyatda rivojlanish va taraqqiy etishi natijasida musulmon sharq mamlakatlaridagi xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-moddiy, madaniy-ma'naviy jabhalarda yangidan yangi so'zlar (neologizmlar), atamalar, terminlar, istilohiy birliklar paydo bo'lib, asta-sekinlik bilan ushbu hududlarga kirib kela boshlaydi (Bunday jarayon hattoki hozirgi o'zbek adabiy tilida ham sodir bo'lganligini ko'rishimiz mumkin...) hamda bunday jarayondan hech bir musulmon sharq mamlakatlar chetda qolib ketmaydi. Buni biz har bir xalqning tilida ilm-fan yoki kasb-hunarga doir yangidan yangi atamalarni (Asosan ot so'z turkumidagi birliklarni...) baynalmilal so'zlar (xalqaro so'zlar) sifatida atashimiz mumkin bo'ladi ("televizor-televsion", "telefon-telephone", "kommunkatsiya-kommunacition", "Kompyuter-komputer", "lokatsiya-location" shaklida va hokozo). Arab tilida ham bunday holat yuz berib, bugungi kunimizga kelib, zamon bilan hamnafas holatda har sohada rivojlangan G'arbdan yangidan yangi ilm-fanga doir va kasbiy atamalarning asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, kirib kelganligini ham ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytmog'imiz lozimki, dunyodagi har bir tilda bo'lgani kabi arab tili va yozuvi ham uzoq qadimiy tarixga ega bo'lib, o'zining ilk shakllanish va rivojlanishida o'ziga xos tarixiy bosqichlarni bosib o'tganligidan hamda bunday tarixiy jarayondan aslo chetda qolib ketmaganligidan dalolat berib turibdi. Shuningdek, arab tili va yozuvining bir vaqtlar (O'rta asrlarda) dunyo miqyosida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-moddiy, madaniy-ma'naviy jabhalarda muhim rol o'ynaganligini hamda dunyo tili, jahon ilm-fan tili bo'lganligi haqidagi ilmiy ma'lumotlarini ko'rishimiz hamda amin bo'lishimiz mumkin bo'ladi. Shuningdek, arab tilining zamonaviy sharoitlarda rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida lingvistik tadqiqotlar o'tkazish, uning lahjalari va adabiy tili o'rtasidagi tafovutlarni o'rganish muhimdir. Buning natijasida, arab tilining boy va xilma-xil madaniyatini, shuningdek, yangi so'z va iboralar kirib kelishi jarayonini nazorat qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari arab tilining rivojlanish jarayonini keng qamrovli yondashuv bilan o'rganishga yordam berdi va uning amaliy va nazariy jihatlarini yanada rivojlantirish uchun takliflar tayyorlandi. Ular tilning rivojlanishida tarixiy va madaniy omillarni yanada chuqurroq o'rganish zaruratini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENSEC)

1. Al-Ma'mari, A.A. Arab tili: Tarixi va rivojlanishiga kirish. Routledge, 2018.

B. 15

2. 2. Ibn Ashur, Muhammad. Ma'ani al-Qur'an. Tunis: Dar al-Sahab, 2002. B. 45-67.
3. Sibavayh. Al-Kitab. Tahrir: Hamid al-Din, 2009. B. 102-125.
4. Makdisi, George. Islom va G'arbda gumanizmning ko'tarilishi: G'oyalar tarqalish tajribasi. Edinburg: Edinburg Universiteti Nashri, 1990. B. 85-100.
5. Versteegh, Kees. Arab tili. Edinburg: Edinburg Universiteti Nashri, 1997. B. 28-44.

Internet saytlari:

1. www.Ziyonet.uz
2. www.google.uz
3. [www.til va adabiyot ta'limi.uz](http://www.til_va_adabiyot_ta'limi.uz)
4. www.Scoups
5. [Https://uz.wikipedia](https://uz.wikipedia)
6. [Https://ziyouz.com](https://ziyouz.com)
7. [Https://www.tarix.uz](https://www.tarix.uz)
8. [Https://ru.wikipedia.org](https://ru.wikipedia.org)
9. [Https://jadid.uz](https://jadid.uz)
10. [Https://www. Supportscience.com](https://www.Supportscience.com)